



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutzimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarning tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Soliqova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhriddin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	



MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLANING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILA BILAN ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Jumanova Fatima Uralovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrası professori

Allaberganova Munisa Begimboy qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi (Maktabgacha ta'lim) fakulteti
1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonida oila bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilg'or xorijiy tajribalar hamda jamiyatda ushbu masalaga qaratilayotgan e'tibor holati o'rganilgan. Maqolada pedagogik jarayonning mazmuni ochib berilib, bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va rivojlantirishda oilaviy muhit hamda ota-onalarning faol ishtiroki muhim pedagogik omil ekanligi ilmiy asoslanadi. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagoglar va ota-onalar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kitobxonlik madaniyati, ta'lim jarayoni, bolalarda kitobga qiziqish, oilaviy-pedagogik integratsiya, ta'limiy hamkorlik.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the effectiveness of pedagogical technologies implemented in cooperation with families to develop reading culture among children in preschool educational institutions. Within the framework of the study, regulatory and legal documents aimed at promoting reading culture, best international practices, and the level of societal attention to this issue are examined. The content of the pedagogical process is revealed, and the crucial role of the family environment and active parental involvement in fostering and enhancing children's interest in books is scientifically substantiated. In addition, the theoretical and practical significance of developing reading culture for educators and parents is highlighted.

Key words: preschool education, reading culture, educational process, children's interest in books, family-pedagogical integration, educational cooperation.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется эффективность педагогических технологий, реализуемых во взаимодействии с семьёй, в процессе формирования культуры чтения у детей в дошкольных образовательных организациях. В рамках исследования рассматриваются нормативно-правовые документы, направленные на развитие культуры чтения, передовой зарубежный опыт, а также уровень внимания общества к данной проблеме. Раскрывается содержание педагогического процесса и научно обосновывается значимость семейной среды и активного участия родителей в формировании и повышении интереса детей к книге. Кроме того, освещается теоретическая и практическая значимость формирования культуры чтения для педагогов и родителей.

Ключевые слова: дошкольное образование, культура чтения, образовательный процесс, интерес детей к книге, семейно-педагогическая интеграция, образовательное сотрудничество.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida bolalarda erta yoshdan boshlab kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshida bolaning nutqi, tafakkuri va ma'naviy rivojlanishida kitob muhim o'rin tutadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolada kitobga bo'lgan

qiziqishni rivojlantirish faqat ta'lim tashkiloti faoliyati bilan emas, balki oiladagi tarbiyaviy muhit bilan ham chambarchas bog'liq. Shu sababli oilani ta'lim jarayoniga faol jalb etish, ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, ota-onalar bolalarga uyda kitob o'qish, ertaklar aytib berish va o'qilgan asarlar yuzasidan muho-kama olib borish orqali ularning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradilar. Shuningdek, o'qishning foydaliligini tushuntirib, uni bolalar hayotining kundalik faoliyatiga aylantirishlari lozim. Bolalar kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ota-onalar nafaqat farzandlarining ilm-fan va adabiyotga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda, balki ularning hayotida kitobning o'rnini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. ^[1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samaradorligini yanada oshiradi. Bolalarga yoshligidan o'zbek xalq ertaklarini so'zlab berish, ularda mehnatsevarlik, samimiylik, mehmondo'stlik kabi insoniy fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat hamda ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtirish va ularning tarbi-yaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlari esa bola tarbiyasida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlod ta'lim- tarbiyasida kitobning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta'kidlab: "Ayni vaqtda axborot kommunikatsiya sohasidagi so'nggi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladir", degan fikrlari fikrimizning dalilidir. Demakki, oila muhitida kito-bxonlikni rivojlantirish barkamol shaxs tarbiyasining muhim asoslaridan biridir.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanti-rishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham bolalarni ma'naviy- axloqiy jihatdan yetuk etib tarbiyalashda kitobxonlikni keng targ'ib qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan bolalarning, yosh avlodning, o'quvchi va talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan mukammal tarbiyalanishi ayni maqsadga muvofiq hodisa sifatida jamiyat a'zolarining diqqat markazida turuvchi dolzarb masaladir. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga bo'lgan muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillar bir qancha bo'lib, shulardan eng muhimi – bu kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan alohida e'tibordir.

Mazkur yo'nalishda tashkiliy-amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasi yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil 20-iyundagi PQ-381-son "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori mazkur sohada muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu sohada ijobiy o'zgarishlar, tub islo-hotlar amalga oshirishga qaratilgan 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona to'g'risida"gi Qonuni^[6], 2017-yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxon-lik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha Kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori ^[7] asosida yurtimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ushbu hujjatlar asosida yurtimizda kitobxonlikni keng targ'ib qilish , axborot resurslaridan samarali foydalanish va ma'naviy–ma'rifiy ishlarni kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu esa jamiyatda ma'naviyati kuchli bo'lgan,shu bilan birga yetuk,ongli va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, 2019-yil 19mart kuni davlatimiz rahbari tomonidan "Beshta muhim tashabbus" g'oyasi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan muhim dasturiy asos hisoblanadi.Ushbu tashabbuslarning to'rtinchisi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxon-likni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Prezidentimiz tomonidan yildan-yilga maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish va kitobxonlikni rivojlantirishni bolalalikdan shakllantirishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilayotgani bejizga emas. Bolalarning barkamol shaxs sifatida ta'lim-tarbiya olishi ham aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bunyod etiladi. ^[3]

Shu qatorda, respublikamizda kitobxonlik madaniyati rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 1999-yildan buyon kutubxona sohasining fidoiy mutaxassislarining tashabbusi hamda xorijiy tashkilotlar ko'magida "Fan, texnika va biznes sohalarida kutubxona, Internet resurslaridan foydalanish-Central Asia" Xalqaro anjuman o'tkazila boshlangan. Mazkur xalqaro anjumanning o'tkazilishi respublikamiz kutubxona sohasini rivojlanti-



rishda muhim bosqich bo'lib, xorijiy tajribalarni o'rganish, zamonaviy axborot texnologiyalarini kutubxonalar faoliyatiga joriy qilish hamda kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Konferensiyada dunyoning yetakchi kutubxonashunos va bibliograf olimlari, kutubxonalar ish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha mutaxassislari ishtirok etganlar.

Bo'lib o'tgan dastlabki anjumanda Ispaniya, Italiya, Fransiya, AQSH, Germaniya, Latviya, Litva, Shvet-siya, Gruziya, Ozarbayjon, Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi mamlakatlar bilan soha rivoji uchun grantlar ajratilib hamkorlik o'rnatilgan. Bunda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti kutubxonashunos-bibliograflari, talabalar, mamlakatimizning yirik kutubxonalari xodimlari qatnashdilar.

Ayniqsa, bu borada Germaniyaning Gyote instituti faoliyati juda samarali bo'lgan. Bu loyihalar Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniyma'rifiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilgan bo'lib, ta'lim tashkilotlarida nemis tilini o'qitish sifati va moddiy- texnik bazasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu institut yordamida Samarqand viloyat AKMd, Toshkent shahar sanoat kasb-hunar kollejining ARMda nemis o'quv zallari tashkil etilgan, kompyuter va ilg'or texnika vositalari bilan jihozlandi. Bu esa talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning mustaqil ta'lim olishiga qulay shart-sharoitlar yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Xorij mamlakatlarida kitobxonlik, jumladan kitoblarga e'tibor juda ham kuchli. Xususan, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi asosan AQShning milliy kutubxonasi va mamlakatning eng qadimgi federal madaniy muassasasi hisoblanadi. U bor-yo'g'i uchta binodan iborat bo'lsa-da, javon maydoni va jildlar soni bo'yicha dunyodagi eng katta kutubxona hisoblanadi. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ana shunday sharoitlar yaratilgani aholining har bir qatlamini ma'naviyatli qilish uchun, albatta. Hududi jihatidan kichik bo'lgan Yevropa davlatlarida ham kitobxonlikka e'tibor juda ham kuchli.^[4]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida bola ongiga singdiriladigan tarbiya, eng avvalo, ijtimoiy manfaatdorlik bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Shunga ko'ra, oilani mustahkamlash asosida jamiyat ma'naviyatini shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu muhim vazifani amalga oshirishda oila kitobxonligini rivojlantirish kata ahamiyat kasb etadi. Zero, o'zbek oilasida ota-onalar kitobxonligi va yosh avlodni kitob vositasida tarbiyalashda o'ziga xos milliy tajribaga ega.

Ammo, hozirgi davrda o'zbek oilalarida va maktabgacha ta'lim tashkilotida xususan, ota-ona va tarbiyachi faoliyatida kitobxonlikning susayishi sezilmoqda. Bularni, asosan:

O'zbekistonda mamlakatimizda elektron kutubxonalarning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi;

- kitob targ'ibotining zamon talabi darajasida yangi metod va usullarining ishlab chiqilmaganligi;
- kutubxonalarda kitob jamg'armasining kamayib ketgani;
- oilada kitobxonlik bilan bog'liq an'analar kamayib ketganligi;
- ayrim ota-onalarning o'z farzandlari kitobxonligi mas'uliyatini ta'lim muassasalariga yuklab qo'yganligi kabi holatlarda ko'rishimiz mumkin.
- maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi faoliyatida kitob mutolasi kunlari to'g'ri tashkil qilinmaganligi;
- ommaviy axborot vositalari, radio, tv, axborot texnologiyasining oilalarga chuqur kirib borishi;
- kitobxonlikni shakllantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarining kam olib borilayotganligi bilan tavsiflash mumkin.

Ushbu holat mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Binobarin, ota-onalar va tarbiyachilar zimmasiga kitobxonlikni tizimli tashkil etish bo'yicha katta mas'uliyat yuklaydi. Jamiyatda yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdan avval, tarbiya beruvchilarning o'zlari bilim va ko'nikmalarini muttasil oshirib borishlari, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun bir nechta samarali usullar mavjud. Birinchi navbatda, bolalarni kitoblar bilan tanishtirish muhimdir. Ularga turli janrdagi kitoblar, shu jumladan ertaklar, hikoyalar, rasmlar va ilmiy madaniy adabiyotlar taqdim etilishi kerak. Kitoblarning turli janrlari bolalarning qiziqishini uyg'otadi va ularni o'qishga jalb qiladi. Bolalar uchun ertaklar va hikoyalar eng samarali vositalardan biridir. Ular nafaqat bolalarning tasavvurini rivojlantiradi, balki axloqiy saboqlar ham beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan interaktiv ertaklar va hikoyalar orqali ularning o'qish va tinglash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Kitoblarga asoslangan turli o'yinlar tashkil etish mumkin. Masalan, kitobdagi qahramonlarni topish, hikoyaning davomini yaratish, kichik rolli teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarini tayyorlash orqali bolalarning kitobgan bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu o'yinlar bolalarda o'qishdan zavqlanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida kitoblar uchun maxsus burchaklar tashkil etish va bolalarni kitoblar bilan muntazam aloqada bo'lishga rag'batlantirish muhimdir. Kitobxonlik uchun qulay sharoit yaratish bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Shuningdek, ularga kitoblarni o'z vaqtida berish va mustaqil o'qishga undash lozim. O'qish soatlarini tashkil etish, bolalar bilan birga kitoblarni o'qish va o'qilgan matnni muhokama qilish ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Muammolarni hal qilish va o'qilgan matn bo'yicha savollarga javob berish orqali bolalarning fikrlash doirasi kengayadi. Kitob o'qish, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun, nafaqat intellektual rivojlanish, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishning ham muhim vositasidir. Kitoblar bolalarga xalq og'zaki ijodidan, dunyo madaniyatidan va tarixidan ma'lumot berib, ularning ijtimoiy mas'uliyatni anglash va odob-axloq me'yorlarini o'rganishiga yordam beradi. Shuningdek, kitob o'qish bolalar o'rtasida do'stlikni, hamkorlikni va jamoaviy faoliyatni rivojlantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim bosqichi – bolalarning shaxsiyati va intellektual rivojlanishi uchun asosiy davr hisoblanadi. Bu davrda bolalar yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Ular o'z faoliyatlarida kitoblar va yozma ma'lumotlardan faol foydalanishni o'rganadilar. Shu sababli, maktabgacha ta'limda bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularning fikrlashi, tasavvur qilish qobiliyati va mantiqiy taffakkurini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalarning bolalar bilan birgalikda kitob o'qishining ahamiyati kata. Bu nafaqat bilim olish, shaxsiy rivojlanishida ham ahamiyatlidir. Quyida bolalarning ota-onasi bilan birgalikda kitob o'qishining bir nechta foydalarini ko'rsatib o'tmoqchiman:

- 1. Nutq va til rivoji:** Bolaning lug'at boyligi kengayadi, to'g'ri talaffuz va grammatik nutq rivojlanadi, fikrini erkin ifodalashga o'rganadi.
- 2. Tafakkur va mantiqiy fikrlash:** Voqealarni tahlil qilish, sabab oqibatini anglash rivojlanadi, tasavvur va ijodiy fikrlash kuchayadi, diqqat va xotira mustahkamlanadi.
- 3. Hissiy-ruhiy rivojlanish:** Bola o'z his-tuyg'ularini anglay boshlaydi, empatiya shakllanadi, stress va qo'rquvlar kamayadi.
- 4. Oila rishtalarining mustahkamlanishi:** Ota-ona va bola o'rtasida yaqinlik kuchayadi, ishonch va ochiq muloqot paydo bo'ladi, bola o'zini qadrlangan his qiladi.
- 5. Kitobxonlik madaniyatining o'sishi:** Kitobga muhabbat erta yoshdan paydo bo'ladi, mustaqil o'qishga qiziqish ortadi, ta'lim jarayoniga tayyorgarlik kuchayadi.
- 6. Axloqiy va ma'naviy tarbiya:** Yaxshilik va yomonlikni farqlashni o'rganadi, ijobiy xulq-atvor, sabr, mehr-oqibat mustahkamlanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar singdiriladi.

Oila bilan kitob o'qish – bu nafaqat bilim berish, balki bolaning shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi kuchli tarbiyaviy vositadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'z tasavvurlari orqali olamni o'rganadilar. Shu sababli, ularga tasavvur qilish imkoniyatini beradigan kitoblarni tanlash muhimdir. Rasmi kitoblar, she'rlar va qisqa hikoyalar bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. Bolalar ertakni tahlil qilish jarayonida "kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)", "Nima uchun?", "...nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)", "Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib xulosaga keladilar. ^[5] Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

Ota-onalar bolalariga kitob o'qish odatini singdirishda o'zlari ham yaxshi namuna bo'lishlari kerak. Bolalar ota-onalarining xatti-harakatlarini kuzatib, ulardan o'rnak oladilar. Agar ota-ona kitob o'qishga odatlangan bo'lsa, farzand ham tabiiy ravishda bu odatni o'zlashtiradi. Ota-onalar bolalariga kitob o'qishning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ham tushuntirishlari zarur. Kitoblar insonning bilimini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, boshqa madaniyat va insonlarni yaxshiroq tushunishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, ota-onalar bolalarini turli janrlardagi kitoblar bilan tanishtirishlari lozim. Masalan, ilmiy-fantastik, tarixiy, adabiy va badiiy asarlar bolalar dunyoqarashini kengaytirib, turli mavzularga bo'lgan qiziqishini oshiradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'limda bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu jarayonning samarali bo'lishi uchun pedagoglar, ota-onalar va jamiyat hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali ularning fikrlashi, tasavvuri, kreativligi va intellektual salohiyati rivojlanishiga yordam beramiz. Yaxshi kitobxonlik madaniyati esa nafaqat bilim olish, balki hayotga qarash, axloqiy va estetik tafakkur hamda shaxsiy rivojlanishning muhim qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nargiza Jo'rayeva, Gulrux Haydarova. (2025) Maktabgacha ta'limda bolalarning kitobxonlik madaniyatining shakllantirish usullari. "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali, 3(2), 9-12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995150>
2. Maysara Eshniyazova "Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish – davlat talabi" Scientific Journal ISSN: 2181-1601. Volume: 1, ISSUE: 5
3. Tolipova Asilabonu "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish." innovative academy <https://doi.org/10.5281/zenodo.7660724>
4. Qodirova Odinaxon Xayitboy qizi "Xorij mamlakatlari va yurtimizda kitobxonlik ahamiyati." Journal of new century innovations <https://scientific-jl.com/new/article/view/23571>
5. Jumanova, F. U., & Allayorova, S. U. (2021). "O'quvchilar nutqiy malakasini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi va ertaklardan unumli foydalanish." Academic research in educational sciences, 2(4), 74-80
6. <https://lex.uz/ru/docs/-1769736>
7. <https://lex.uz/docs/-3338600>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.